



Eratosfen (miloddan avvalgi taxminan 276, Kirena, hozirgi Liviya — 194, Aleksandriya, Misr) — qadimiy yunon olimi. Aleksandriya (Iskandariya) va Afina shahrilarida tahsil koʻrgan. Iskandariya kutubxonasi boshligʻi boʻlgan. Mat. fanida tub sonlarni topish usulini taklif etgan. Matematik geografiyaga asos solgan, jumladan, yer yuzining obod qismi (eykumena) ning xaritasini tuzgan. Birinchi boʻlib yer meridiani yoyi uzunligini hisoblagan. Fanga "geografiya", "kenglik", "uzunlik" tushunchalarini kiritgan. E. xronologiya, astronomiya, tilshunoslik, falsafa va musiqa bilan ham shugʻullangan. E. asarlarining ayrim qismlarigina bizgacha yetib kelgan.

Eratosfen elagi (Eratosfen gʻalviri) — butun son gacha boʻlgan barcha [tub sonlarni](#) topish [algoritmi](#) boʻlib, qadimiy grek matematigi [Eratosfen Kireniyga](#) bagʻishlab nomlangan. Eratosfen elagi algoritmi kichik (odatda, 10 milliondan kichik boʻlgan) [tub sonlar](#) topishning eng tez uslub hisoblanadi.